



O'qituvchining murojaati o'rganildi

4-betda o'qing



Oilaviy zo'ravonlik: tahlil va natija

7-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
21-MAY
SESHANBA

№ 20
(1432)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

Bugungi kunda ekologik muvozanatni saqlash, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni asrab-avaqlash dunyo miqyosidagi global vazifaga aylandi. Buni samarali amalga oshirish esa, jahon hamjamiyatining birgalikdagi faoliyati va hamkorligini taqozo etmoqda.



BIOXILMAXILLIK NIMA?



Shu ma'noda aytganda, kamayib borayotgan har bir biologik turning ekologik tizim muvozanatiga katta ta'siri bu boradagi muammolarning biron hudud miqyosida cheklanib qolmasligini ko'rsatyapti. Yangilangan Konstitutsiyamizning 49, 62 va 68-moddalarida barqaror rivojlanayotgan mamlakatimizda bioxilma-xillikni saqlashning o'ziga xos huquqiy asoslari mujassam. Qolaversa, Prezidentimiz tomonidan imzolangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyasi ham ekologik muammolarni ijobiy hal etishda muhim o'rin tutadi.

Albatta, hamyurtlarimiz biologik xilma-xillikning ahamiyatini to'la anglab yetishi uchun, eng avvalo, mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini bilishi lozim. "Bioxilmaxillik nima?", degan savolga ko'pchilik bu "tabiat" yoki "yovvoyi hayvonlar" deb javob beradi. Ammo, biologik xilma-xillik ancha keng tushuncha bo'lib, u hayotning barcha turlarini va sayyoramizda mavjud tabiiy tizimlarni o'z ichiga oladi. Olimlarning fikricha, Yerdagi taksonomik jihatdan aniqlangan turlarning soni 13 millionga yaqindir. Ayni paytgacha Yer yuzida 1,75 million tur aniqlangan bo'lib, ulardan 750 ming turi hasharotlar, 41 ming umurtqali hayvonlar, 250 ming xili o'simliklarni tashkil etadi. Qolgan turlar murakkab tarkibdagi umurtqasiz hayvonlar, suv o'tlari, mikroorganizmlar va boshqa organizmlardan iborat.




O'zbekiston bioxilma-xilligi 27 mingdan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida umurtqasiz hayvonlarning 14 ming 900 turi, umurtqali hayvonlarning esa 715 turi uchraydi. Umurtqalilarning 107 turi sutemizuvchilar, 467 turi qushlar, 61 turi sudralib yuruvchilar, 3 turi amfibiylar, 77 turi baliqlar.

Shuningdek, 11 ming turdagi o'simliklar, qo'ziqorinlar, suv o'tlari bor. Bundan tashqari, yuqori yovvoyi o'simliklarning 4 ming 300 turi mavjud bo'lib, 8 foizi endemik turlardir. O'zbekiston "Qizil kitob"iga (2019) 206 hayvon va 314 o'simlik turi kiritilgan.

So'nggi o'n yil davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi. Muhofazaga muhtoj va yo'qolib borayotgan hayvon turlaridan O'zbekistonning Qizil kitobiga kenja turlar bilan birgalikda sutemizuvchilarning 30, qushlarning 52 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 18 turi, halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 15 turi va bo'g'imoyoqlilarning 67 turi kiritilgani ijobiy holat emas.

O'zbekiston florasi va faunasi juda qadimiy bo'lib, u murakkab genetik rishtalar bilan chambarchas bog'langan. Bu o'lkada Turon va Turkistonning endemik turlarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. O'simlik va hayvonlarning har bir turi tabiatning tarixan takrorlanmas, genetik jihatdan yagona, har qanday biologik jamoada faqat o'ziga xos o'ringa egaligi sababli, tabiiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan in'om hisoblanadi.

Prezidentimiz Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan uchrashishida bir fikrni alohida ta'kidladi: "Ma'lumki, keqingi yillarda haj va umra ziyoratiga keng qo'l ochayapmiz. Minglab fuqarolarimiz mana shunday qutlug' ziyoratga borib kelayotganlariga hammamiz guvohmiz."



DABDABABOZLIK VA SHUHRATPARASTLIKNING OXIRI BORMI?

Bu borada ilgari ham aytgan fikrimni takrorlamoqchiman: hajga, umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak. Af-suski, hamma joyda ham shunday bo'lmayapti. Ziyorat bahona o'zini ko'z-ko'z qilish, manmanlikka berilish kabi bizga yarashmaydigan xunuk holatlar ko'zga tashlanayapti."

Xo'sh, nima uchun biz davlatimiz rahbarining yuqoridagi fikrini esladik?

Gap shundaki, yaqinda qishloqdan qaytayotib poyezdda nafaqa yoshidagi bir onaxon bilan hamroh bo'lib qoldim. Yo'l-yo'lakay suhbatlashib borarkanmiz, o'sha ayol menga qishloq joylarda yuz berayotgan salbiy bir holatni kuyunib gapirib qoldi.

3-betda o'qing

3-betda o'qing

2 JARAYON

XX asrning oxiri XXI asrning boshiga kelib G'arbning bir qator davlatlarida siyosiy va huquqiy atamalar orasida elektron hukumat tushunchasi paydo bo'ldi. Elektron hukumatni ishlab chiqish bilan birinchi navbatda AQSh, Angliya, keyinchalik esa Italiya, Norvegiya, Avstraliya, Singapur kabi davlatlar shug'ullandi.

BUGUN DUNYO MAYDONIDA AXBOROT ASRI KEZMOQDA



Elektron axborot asriga tamoman kirib borayotgan bugungi dunyo uchun insonlarning ongiga ta'sir ko'rsatish va uni manipulyatsiya qilish avvalgidek muammoli ish hisoblanmay qoldi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda yer kurrasining narigi burchagidagi ma'lumotlarni bilish uchun avvalgidek uzoq kutishga hojat yo'q. Buning uchun Xorazmiy algoritimini qo'llashning o'zi kifoya. Siz qo'llingizdagi elektron gadget orqali Yaponiyadagi holatni AQShning eng g'arbiy shtatlaridan San Fransiskoda turib ham bir lahzada bila olasiz. Bugungi kunda dunyo maydonida axborot asri kezmokda. Axborot quroli ko'pgina davlatlarning eng kuchli quroliga aylanmoqda.

Elektron hukumat kommunikatsion tarmoqlar vositasida (eng ommabopi internet) axborotga ishlov berish, uni uzatish va tarqatish vositalari orqali davlat boshqaruvini tashkil etish,

davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlari tomonidan fuqarolarning barcha toifalariga elektron xizmat ko'rsatish va bu orqali fuqarolarga davlat organlarining faoliyati haqida axborot berib borishning mexanizmi hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyodagi 160 ga yaqin davlat demokratik taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu mamlakatlarda demokratiyaning qaror topishi jahon hamjamiyati tomonidan milliy va umuminsoniy holat sifatida tan olingan.

Elektron demokratiya – axborotdan foydalanish bilan tavsiflangan demokratiya shakli bo'lib, tarmoq kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan siyosiy muloqotni ta'minlash, demokratiya tamoyillarini amalga oshirishga ko'maklashish va siyosiy tuzilmani shakllanayotgan axborot jamiyatining real ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradigan mexanizmdir.

ONLAYN PLATFORMALARNING AFZALLIGI

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonuni respublikamizda elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun asos bo'ldi. Fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi bosqichi vujudga keldi. Shahar markazidan ancha uzoqda joylashgan aholi yashash punktlarida istiqomat qilayotgan shaxslar ham davlat xizmatlari bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun shahar markaziga kelishlari yoxud bir necha soatlab navbat kutishlari shart bo'lmay qoldi.

Hozirgi kunga kelib fuqarolar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ta'lim, fuqarolik, oila, bojxona, soliq, ekologiya va boshqa sohalarga oid 200 dan ortiq davlat xizmatlarini onlayn olishlari mumkin.

Oxirgi olti yildagi islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi BMTning elektron hukumatning rivojlanishi bo'yicha dunyo reytingida 2023-yil 18 pog'ona yuqorilab, 193 davlat orasida 69-o'rinni egalladi. Quvonarli tomoni shundaki, 2018-yilda O'zbekiston mazkur reytingda 81-o'rinni qayd etgan bo'lsa, 2022-yilda 87-o'rinni egallagandi.

O'zbekistonda jadal sur'atlar bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi amalga oshirilmoqda. Elektron demokratiyani shakllantirishning asosi bo'lgan "Elektron hukumat" tizimi ishlab chiqilmoqda. Elektron hukumatning rivojlanishi, shubhasiz, elektron demokratiyaning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, mamlakatimiz o'z oldiga qisqa mud-

datda ishonchli "Elektron hukumat" infratuzilmasini yaratishni maqsad qilib qo'ygan.

STIVEN KLIFT NIMA DEYDI?

O'zbekistonda elektron demokratiya mavjudmi? Ha, albatta, mavjud! Bunga Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – www.regulation.gov.uz yorqin misol bo'la oladi. Ushbu sayt orqali fuqarolar turli xil normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, qonun va qonunosti hujjatlari loyihalari bilan tanishib, hujjat haqida o'z fikrlarini yoki o'zgartirishlarni bevosita bildirishlari mumkin.

"Elektron demokratiya" tushunchasini fanga kiritgan olim Stiven Klift shunday deydi: "Aslida "elektron demokratiya" va "elektron hukumat" butunlay boshqa-boshqa tushunchalardir. Agar ikkinchisi samaradorlikni oshirish va xizmatlardan foydalanish qulayligini bildirsa, birinchisi, har bir fuqaroning imkoniyatlarini kengaytirish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi".

Elektron hukumatni rivojlantirish mamlakat o'z aholisini rag'batlantirishining bir shakli hisoblanadi. Onlayn xizmatlarni taqdim etish orqali aholining katta qismining vaqtini va naqdini tejash uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Davlat xizmatchilarining hokimiyat va-kolatlarini qayta taqsimlash orqali sintez qilinadi. Bu esa manfaatdor shaxslar oldidan byurokratik to'siqlarni surib qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining kafo-lati bo'lgan korrupsiya omilini sezilarli ravishda kamaytirib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ravnaq uchun yo'l ochadi.

Igor KUDRAVSEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori

Aslida "Prezident" so'zining tub mohiyati lotincha "oldinda o'tiruvchi" deganidir. Prezident deganda keng ma'noda respublika boshqaruvi shaklidagi ko'pchilik mamlakatlarda ma'lum muddatga saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i tushuniladi.

PREZIDENTLIK INSTITUTIDA RASMIY HUJJATLAR



Bu kabi davlat boshqaruvidagi ilk qoidalar (shakllar) AQShda 1787-yilda vujudga keladi. 1990-yil 24-martda O'zbekiston ittifoqdosh respublikalar ichida birinchi bo'lib Prezident lavozimini ta'sis etdi.

Bunday boshqaruv shakli dunyoda respublika boshqaruv shakliga asoslangan mamlakatlarda xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, saylovchilar korpusi, parlament yoki boshqa organlar tomonidan davriy saylovlarda muayyan muddatga saylanadigan hamda davlat boshlig'i hisoblanadigan oliy mansabdor shaxsni ifodalovchi institut sifatida keng qabul qilingan. BMTning ma'lumotiga qaraganda, dunyoning siyosiy xaritasidagi 145-150 ta davlatda boshqaruvning shunday shakli mavjud. Dunyoning siyosiy xaritasidagi prezidentlik boshqaruviga ega

davlatlarda prezident davlat boshlig'i sifatida rasmiy hujjatlar qabul qilishi, ya'ni tasdiqlashini huquq ijodkorligining alohida belgisi sifatida ko'rish mumkin.

Xalqaro huquq tili bilan aytganda, har bir davlat o'ziga xos taraqqiyotga va milliy huquqiy tizimga, o'ziga xos suveren demokratik rivojlanish yo'lga ega. Masalan, davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasiga asoslangan mamlakatlarga xos xususiyatlaridan biri – bu prezidentning fuqarolar tomonidan umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish orqali saylanishi hisoblansa, prezidentlik instituti amal qiladigan ayrim mamlakatlarda prezident bilvosita saylov huquqi asosida saylanadi. Xususan, AQShda prezident to'g'ridan-to'g'ri emas, balki saylovchilar kollegiyasi orqali, Indoneziyada milliy konsultativ kongress orqali, Italiyada parlament palatalarining qo'shma majlisida saylanadi.

Konstitutsiyamizning 105-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mamlakatimiz davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Konstitutsiyaning 110-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Endi "normativ-huquqiy hujjat" tushunchasiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak. Ko'pchilik noto'g'ri ifodalaydigan bu huquqiy atama amaldagi qonunchilikda berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuniga binoan, normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umumijburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

Xo'sh, unda Konstitutsiyaning 110-moddasida ko'rsatilganidek, Prezidentning farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarishi normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanishi mumkinmi?

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun-ning 6-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning turlari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, normativ-huquqiy hujjatlar tizimida Prezidentning qaror va farmonlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlaridan keyin keluvchi (turuvchi) va farmon va qarorlarigina normativ-huquqiy akt ekanligi belgilanmoqda.

Demak, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir. Prezidentning farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

Jahongir QURBONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

BIOXILMAXILLIK NIMAGA

O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda BMT-ning "Bioxilma-xillik to'g'risidagi" Konvensiyaga qo'shilib xalqaro hamjamiyat oldida o'zining milliy biologik resurslarini muhofaza qilish uchun javobgarlikni e'lon qilgan edi. O'zbekistonning bu boradagi qadamlari 1997-yilda "Yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida"gi (Bonn-CMS) va 2001-yilda "Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv-botqoqli joylar to'g'risida"gi Konvensiyalarga qo'shilishi bo'ldi.

O'simliklar olamiga inson tomonidan kuchli ta'sir ko'rsatilayotgan bugungi kunda floramiz vakillarining ekobiologiyasini ilmiy asosda o'rganish, ularning reproduktiv harakatini baholash, yo'qolib ketish arafasida turgan turlar senopulyatsiyalari monitoringini olib borish, foydali mahalliy flora turlarini saqlab qolish o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dorivor preparatlarning 60 foizi dorivor o'simliklardan olinadi. O'rta Osiyo hududida 500 dan ortiq dorivor o'simlik turlari qadimdan turli kasalliklarni davolashda va ularning oldini olishda qo'llanilib kelingan. Har yili respublikamizda qizilmiya, kovrak, kovul, qo'ziqorin va na'matak kabi yovvoyi holda o'sadigan dorivor, oziq-ovqat va texnik o'simliklarning 65 turiga yaqini yetishtiriladi. Binobarin, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda biologik xilma-xillikni saqlab qolish uchun hukumatimiz tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozir O'zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlari tizimiga 8 ta davlat qo'riqxonasi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 2 ta tabiat milliy bog'i, 10 ta davlat buyurtma qo'riqxonasi, 6 ta tabiat yodgorligi, 3 ta yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish bo'yicha pitomnik, respublika hududidan oqib o'tuvchi 8 ta daryolar suvini muhofaza qilish zonalari, respublika hududida joylashgan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari ro'yxatga kiritilgan 2 ta (Dengizko'l va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi) ko'llar kiradi.

E'tirof etish kerak, O'zbekiston bioxilma-xillik bo'yicha Kunmin-Monreal global dasturi-



→ Davomi. Boshlanishi 1-betda

ga qo'shilish bilan bir vaqtda dunyoning boshqa ko'plab davlatlari kabi uni amalga oshirish uchun o'zining milliy maqsadlarini belgilash majburiyatini olgan. Boshlangan loyiha O'zbekistonning bioxilma-xillikni saqlash, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish, monitoringini amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha siyosatini belgilab beruvchi Milliy strategiyasi va Harakatlar rejasi global dasturining kun tartibiga mos keladigan tarzda qayta ko'rib chiqishga ko'maklashadi.

Asosiy global maqsadlardan biri 2030-yilga qadar dunyo bo'ylab tanazzulga uchragan ekotizimlarni 30 foizga qayta tiklash, pestitsidlar xavfini kamida 50 foizga kamaytirish, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi uchun ajratilgan hududlarni barqaror boshqarish va agroekologiya hamda boshqa bioxilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydigan amaliyotlarni sezilarli darajada oshirish (maqsadlarning to'liq ro'yxati mavjud), 2050-yilga kelib barcha turlarning yo'q bo'lib ketish xavfini va tezligini o'n baravar kamaytirish hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash uchun yoshlarning ekologik-huquqiy madaniyatini oshirish hamda bu boradagi bilimlarni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, har yili 22-mayni "Xalqaro bioxilma-xillik" kuni sifatida nishonlash, biologik xilma-xillikni saqlash va uning huquqiy asoslarini takomillashtirib borish zarur. Zero, bu inson hayoti, salomatligi va farovonligini ta'minlashning muhim talabidir.

Jumanazar XOLMO'MINOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Ekologiya huquqi" kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori

→ Davomi. Boshlanishi 1-betda

Dabdababozlik va shuhratparastlikning oxiri bormi?

– O'tgan hafta mahallamizdagi besh-o'nta ayollar Umra safaridan kelgan bir hoji onani ziyorat qilgani bordik, – deya gap boshladi hamrohim. – Qaytayotganimizda qo'shni juvonlardan biri o'sha xonadondan uzoqlashmay turib ming'irlashga tushdi: "He, o'l, nazari past. Men unga qimmat materialdan bir kiyimlik olib kelgandim. Qaytargan lattasini qaranglar. Bu matosiga men oyog'imni ham artmayman" deb uyiga yetguncha hammamizning asabimizni buzdi.

Bundan ikki oycha avval ijtimoiy tarmoqlarda Umra safaridan qaytayotgan hamyurt ayollarimizdan birini kutib olish marosimi videosi tarqaldi. Ko'rsangiz, unda tasvirga tushirilgan dabdababozlikdan yoqa ushlaysiz – ko'chani boshigacha gilam to'shalib, hoji ona uchun yo'lak qilingan. U yo'lakdan xonadoni tomon yurib kelarkan, kimdir uning oyog'i ostiga kiyimini yechib tashlayapti. Boshqa bir ayol esa 4-5 yashar nabirasini gilamga ko'ndalang yotqizib, hoji onadan bolaning ustiga "tabarruk" oyog'ini tekkizib, qo'yishini so'rayapti.

Ramazon oyi oxiridagi ma'ruzalardan birida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Nuriddin Holiqnazarov besh-o'nta oshna-og'aynilar har oyda bo'lib o'tadigan gap-gashtklarini Makka yoki Madina shaharlarida uyushtiradigan odat chiqarishganini taassuf bilan tilga oldilar.

Albatta, bunday holatlar hozir yangilik bo'lmay qoldi. Ammo "Yuqoridagi singari xunuk holatlar qachongacha davom etadi? Bunday bid'at va riyokorlikning oxiri bormi?" degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Axir, bir mulohaza qilib ko'raylik: Umra ziyoratidan ko'zlangan maqsad, avvalo, Ka'bani tavof qilib, belgilangan amallarni bajarish orqali gunohlardan poklanish emasmi?

Shu yil Ramazon oyida bizga qadri bo'lgan bir inson (ayol) Umra ziyoratiga borib keldi. Lekin uylarida hech kimni kutib-kuzatmadi. Biz ham 3-4 tanish-bilishlar arang roziliklarini olib, ko'rgani bordik. Eng muhimi, keldi-ketdiga sarflanadigan mablag'larini bir og'ir bemorga berganini farzandlaridan eshitib, xursand bo'ldik.

Bundan tashqari, ma'raka-marosimlarimizda hali-hanuz barham topmayotgan isrofchilik ham dilni xira qiladi. Dafn marosimidan keyin "20", "40", "Yil oshi" singari ortiqcha tadbirlarga chek qo'yilmayapti. Aniqrog'i, bunday marosimlar kim o'zarga uyushtirilayotgandek. Marhumning qaysidir yaqini, o'g'li yoki qizi katta osh bergani, marosim ishtirokchilarining har biri (ayollar)ga falon so'mlik hadyalar ulashgani yon-atrofdagilar, mahalla-ko'y va tanish-bilishlar o'rtasida shov-shuv bo'lishi kerak ular uchun. Undan ko'ra, o'sha marosimni kamxarj qilib, qolgan mablag'ni xonadon sohiblari ro'zgoriga ishlatasa yoinki marhum va marhumalarning nomidan nochor, qiynalgan oilalarga ehsonu sadaqa qilinsa yaxshi emasmi? Binobarin, imom-xatiblarimiz, mahalla fuqarolar yig'inlari raislari, otinoyilar va yoshi ulug'larimiz boshchiligida yuqoridagi kabi noxush holatlarga chek qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xurshid SULTONOV,
"Inson va qonun" muxbiri

☰ HUQUQIY DAYJEST

TILXAT HAM SHARTNOMA O'RNIGA O'TADI

Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga asosan, qarz berayotganda uni oddiy yozma shartnoma bilan rasmiylashtirish kerak. Agar qarzning miqdori BHM (bazaviy hisoblash miqdori)ning 10 baravaridan (3 mln 400 ming so'mdan) ko'p bo'lsa, yozma shartnoma tuzilishi shart.

Qarz oluvchi yoki beruvchining biri yuridik shaxs bo'lganida esa qarz miqdoridan qat'i nazar yozma shartnoma tuzilishi kerak. Qarz oluvchidan tilxat olish yoki qarz berilganligini tasdiqlaydigan har qanday hujjat ham yozma shartnomaning o'rnini bosadi.

PEDAGOGLAR BEPUL MAJBURIY TIBBIY KO'RIK DAN O'TKAZILADI

Qonunchilikka ko'ra, pedagoglarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

Davlat maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining hamda boshqa tashkilotlarning bevosita bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagoglari davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tkaziladi.

Davlat sog'liqni saqlash muassasalarida davlat ta'lim tashkilotlarining pedagoglarini majburiy bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazish Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

SUBSIDİYALAR BERILADI

Qonunchilikka ko'ra, tadbirkorlar-ga quyidagi subsidiyalar ajratilishi belgilangan:

2025-yil 1-yanvargacha kasanachilik bilan shug'ullanayotgan ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kiritilgan fuqarolarga asbob-uskunalar va xomashyo xarid qilish bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun, biroq har bir kasanachi uchun BHMning 30 baravarigacha (10 mln 200 ming so'm) miqdorda bir martalik;

Kasanachilik asosida uy sharoitida ishlayotgan nogironligi bo'lgan shaxslarning ish joyini moslashtirish uchun har bir moslashtirilayotgan ish joyi bo'yicha BHMning 40 baravarigacha (13 mln 600 ming so'm) miqdorda;

Kasanachilarni kasb-hunarga o'qitishga sarflanadigan xarajatlarni 3 oygacha bo'lgan muddatda qoplash uchun, biroq har bir kasanachi uchun har oyda BHMning 2 baravarigacha (680 ming so'm) miqdorda.

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

HADYA SHARTNOMASINI BEKOR
QILISH MUMKINMI?

Xo'jayli tumanidagi 27-sonli umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi M.S. o'quv soatlarining taqsimlanishidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

O'qituvchining
murojaati o'rganildi

O'rganish jarayonida 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasiga binoan, jismoniy tarbiya fani bo'yicha jami 38 soat bo'lib, ushbu dars soatlari 4 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga taqsimlangani aniqlandi.

Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tgan Nizomga asosan, 1 stavkada ishlovchi o'qituvchiga haftalik darslik yuklamasi 20 soatni tashkil etishi, shuningdek, Nizomning 16-bandiga ko'ra, o'quv soatlari maksimal o'quv soatini olish imkoniyatiga ega bo'lgan o'qituvchining yozma roziligi bilan boshqa o'qituvchilarga berilishi mumkin ekani belgilangan.

Shunga qaramasdan, 27-sonli umumta'lim maktabining pedagogik kengashi majlisining 2023-yil 31-avgustdagi bayoniga muvofiq, M.S.ga jismoniy tarbiya fanidan 12 o'quv soati ajratilgan, ya'ni yuqorida qayd etilgan Nizomning 15-bandi talablariga ko'ra, M.S.ning darajasi I (toifali) bo'lishiga qaramasdan, uning rozilgisiz boshqa o'qituvchilarga o'quv soatlari berilgan.

Adliya bo'limi tomonidan kiritilgan taqdimnomaga asosan, yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlari bilan birgalikda maktabning jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari orasidagi dars soatlari Nizomga asosan qayta ko'rib chiqildi. Natijada o'qituvchining murojaati ijobiy hal etilib, unga tegishligicha 18 soat dars soati taqsimlab berildi.

Gulzada FAXRATDINOVA,
Xo'jayli tuman adliya bo'limi yuridik
xizmat ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti



Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan otaliqqa olingan yoshlar bilan manzilli ravishda ish olib borilmoqda. Bunda ularning bandligini ta'minlash, muammolarini o'rganish va bartaraf etish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Xususan, Paxtachi tuman davlat xizmatlari markaziga ham "Tadbirkor" mahallasidagi 10 nafar yoshlar birlashtirilgan bo'lib, ularning dehqonchilik uchun yer maydoniga ehtiyoji borligi ma'lum bo'ldi.

YOSHLARGA YER AJRATILDI

Yoshlarning bu boradagi talab va istaklarini amalga oshirish maqsadida DXM rahbariyati tomonidan zarur chora-tadbirlar ko'rib, auksionda ishtirok etish uchun ularga elektron raqamli imzo olib berilib, huquqiy yordam ko'rsatildi. Tuman hokimligi zaxirasidan ajratilgan yerlardan onlayn savdolarida g'olib bo'lgan 10 nafar yoshlarga yer maydonlari ajratib berildi. Yoshlar endilikda mazkur yer maydonlarida "Bir massiv – bir mahsulot" tamoyili asosida sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar, makkajo'xori doni, dukkakli va moyli ekinlar, bog'dorchilik-uzumchilik, dorivor o'simliklar, chorva ozuqasi ekinlarini yetishtirishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo'lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etilgani, auksion savdosi g'olibi bo'lgan yoshlarga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib to'lashga imkoniyat yaratmoqda.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

To'rtko'l tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasida ishlovchi A.B. 2022-2023 hamda 2023-2024-yillarda ishlagan davri uchun mehnat ta'tili va moddiy yordam pullari to'lab berilmagani haqida tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

XODIMNING MEHNAT
HUQUQLARI TIKLANDI

Murojaat joyida o'rganilganida, B.A.ga haqiqatan ham tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasida 2022-2023 hamda 2023-2024-yillarda ishlagan davri uchun mehnat ta'tili hamda jamoa shartnomasida belgilangan moddiy yordam pullari berilmagani aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 214-moddasiga asosan, ish beruvchi xodimlarga qonunchilikda kafolatlangan ta'tillarni berishi, xodimlarga davomiyligi qonunchilikda kafolatlangandan kam bo'lmagan ta'tillarni berilishini ta'minlashi, ta'til berish tartibiga rioya qilishi, shuningdek, xodimlarga jamoa shartnomasida va mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta'tillar sohasidagi qo'shimcha huquq va kafolatlarni berishi shart deb belgilangan.

O'rganish natijalariga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasi rahbariga B.A.ga 2022-2023 hamda 2023-2024-yillar uchun jami 4 million 735 ming 140 so'm mehnat ta'tili va moddiy yordam puli to'lab berish choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnoma kiritilib, xodimga ta'til va moddiy yordam puli to'lanishi ta'minlandi.

Davranbek ALLABERGENOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Bo'zatov tuman tibbiyot birlashmasida ishlovchi 10 nafar xodimning 2023-yildagi xizmat safari xarajati pullari to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga qilgan shikoyati qonunchilik talablariga muvofiq o'rganildi.

XIZMAT SAFARI
XARAJATLARI TO'LAB
BERILMAGAN

Aniqlanishicha, xizmat safari xarajatlari xodimlar tomonidan qoplanib, tegishli tasdiqlovchi hujjatlar 2023-yilda birlashmaning buxgalteriya bo'limiga taqdim etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari haqida"gi Nizomning 1-ilovasida "Xodim tomonidan tashkilotning buxgalteriya bo'limiga tegishli tartibda xizmat safari xarajatlari bilan bog'liq hujjatlarni taqdim qilgan kuni hisob-kitob qilinishi lozim"ligi belgilangan bo'lishiga qaramasdan, birlashma ma'muriyati tomonidan xodimlarga jami 10 million 403 ming 580 so'm miqdoridagi xizmat safari xarajatlari to'lab berilmagani ma'lum bo'ldi.

Binobarin, tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan taqdimnomaga asosan xodimlarga 10 million 403 ming 580 so'm miqdoridagi xizmat safari xarajati undirib berilishi ta'minlandi.

Kazbek PALUANIYAZOV,
Bo'zatov tuman adliya bo'limi boshlig'i



SUBSIDIYAGA ONLAYN ARIZA BERISH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?



MUALLIMNING MUAMMOSI HAL BO'LDI

Asli yashash joyi Qorako'l tumanida bo'lgan O. Ibragimov Sayxunobod tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2022-yildan buyon matematika fani o'qituvchisi vazifasida ishlab kelmoqda. U ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan mazkur maktabga yoshlarga saboq berish uchun boshqa hududdan o'qituvchi-pedagog sifatida jalb etilgan bo'lsa-da, tuman hokimligi tomonidan unga uy-joy ijarasi uchun har oylik pul kompensatsiyasi to'lab berilmagan. Bundan norozi bo'lgan muallim Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasiga murojaat qilgan.



Aniqlanishicha, Sayxunobod tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi Xalq ta'limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan 2022-yilda tasdiqlangan ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar ro'yxatiga kiritilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarda ta'lim berish uchun boshqa hududlardan o'qituvchi-pedagoglarni jalb etish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 26-bandida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari boshqa hududdan ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarga jalb etilgan o'qituvchi-pedagoglarga munosib sharoitlar yaratish uchun ularni borgan hududda uy-joyi bo'lmagan taqdirda, tegishli tuman (shahar) hokimliklari tomonidan faoliyat olib borgan davriga, biroq 2 yildan ortiq bo'lmagan muddat davomida xizmat uy-joylari yoki tuman (shahar)lar mahalliy budjet mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik pul kompensatsiyasi berilishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Aniqlangan ushbu qonunbuzilish holatini bartaraf etish yuzasidan Sayxunobod tuman hokimligiga taqdimnoma kiritildi. Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining qarori bilan tuman hokimining tegishli farmoyishi qabul qilindi hamda xodimning ijara to'lovlari uchun 12 million 120 ming so'm miqdorida kompensatsiya puli to'lab berilishi ta'minlandi.

Timur KARIMOV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

Fuqaro V. Fayziyev Nurafshon shahar adliya bo'limiga murojaat qilib, shaharning Toshkent yo'li ko'chasidagi kichik dehqon bozori hududida unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan savdo do'koni 2017-yilda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan buzilishga tushgani, Nurafshon shahar hokimining 2018-yil 12-iyundagi qarori bilan buzilgan savdo do'koni o'rniga ikki hissa yer maydoni ajratilishi belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar yer maydoni ajratib berilmagani, yetkazilgan zarar shahar hokimligi tomonidan qoplab berilmaganidan shikoyat qilgan. Tadbirkor buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda amaliy yordam berishni so'ragan.

ZARAR UNDIRIB BERILDI



O'rganish davomida fuqaro V. Fayziyev ushbu masala yuzasidan shahar hokimligiga ariza bilan murojaat qilgani va shahar hokimligi tomonidan unga 2024-yil 29-fevralda berilgan xatga ko'ra, olib qo'yilgan yer maydoni hamda buzilishga tushgan bino-inshootlarning bozor qiymatini kompensatsiya sifatida to'lab berilishi yuzasidan sudga murojaat qilishi maqsadga muvofiqligi tushuntirilgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, yer maydoni va bino-inshootlar bozor qiymati baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan "Aktiv valuation" MChJ tomonidan 183 million 443 ming so'mga baholangan va X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi ekspertlari tomonidan o'rganilib, baholash natijasining asosligi to'g'risida xulosa qilingani shahar hokimligiga taqdim etilib, zararni qoplab berish so'ralganda, hokimlik tomonidan V. Fayziyevning murojaatlari e'tiborga olinmagan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan tadbirkorning manfaatida javobgar Nurafshon shahar hokimligidan 183 million 443 ming so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va sud tomonidan da'vo qanoatlantirilib, hal qiluv qarori chiqarildi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi boshlig'i

Fuqaro o'z uyida davlat ro'yxatidan o'tdi



Davlat xizmatlari markazi operatori, xohlang uyingizda, xohlang ish joyingizga borgan holda xizmat ko'rsatishi mumkin. O'zgaralar yordamiga muhtoj keksalar, mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklangan hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar mazkur qulaylikdan foydalanish chog'ida davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun to'lov to'lamaydi, ya'ni ularga bepul xizmat ko'rsatiladi.

Samarqand tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari ham "Yangiobod" mahallasida istiqomat qiluvchi I-guruh nogironi O. Murodovning xonadoniga borib, fuqaroga sayyor tartibda davlat xizmati ko'rsatishdi. Olimjon tadbirkorlik bilan shug'ullanib, aholiga avtotransport vositalarini yuvish xizmatini taklif qilmoqda. Shu orqali bir necha kishini ish bilan ta'minlab, o'zini, oilasini moddiy rag'batlantirish niyatida. Markaz xodimlari uning xonadoniga kelib, uning elektron raqamli imzo olishida hamda tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishida ko'maklashdi. Natijada Olimjon rasman o'z ish faoliyatini boshlash huquqiga ega bo'ldi.

Davlat xizmatlarini joyiga chiqqan holda ko'rsatish yoki davlat xizmatlaridan foydalanishga ariza yuborish uchun Toshkent shahrida bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi, viloyat markazlarida BHMning 40 foizi, tuman (shahar)larda BHMning 30 foizi miqdorida bir martalik to'lov undiriladi.

Shuningdek, ushbu xizmat milliy haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirish, ID-kartasi hamda xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish, JShShIR berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Savlat SALOHIDDINOV,
Samarqand tuman davlat xizmatlari markazi
direktori

6 HOLAT

Bugungi kunda iqtisodiy sudlar tomonidan tadbirkorlar bilan davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqishda tadbirkorlik subyekti huquqlarining ustuvorligi prinsipiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

BOJXONA DA'VOSI ASOSSIZ DEB TOPILDI?

Qashqadaryo viloyat bojxona boshqarmasi hamda "CKD-Xamkor" xususiy korxonasi o'rtasida yuzaga kelgan nizoni apellyatsiya sudida ko'rish chog'ida ham tadbirkorning haq ekani ayon bo'ldi. Gap shundaki, birinchi instansiya sudining 2024-yil 27-fevraldagi hal qiluv qaroriga binoan da'vogar viloyat bojxona boshqarmasining da'vosi qanoatlantirilib, xususiy korxonadan 69 million 509 ming so'm bojxona to'lovi undirilgan. Tadbirkor esa bundan norozi bo'lib, apellyatsiya shikoyatini bergan.

Sudda aniqlanishicha, "SKD-Xamkor" xususiy korxonasi nomiga Turkmaniston davlatining "Kamil Topar" korxonasi tomonidan yuk hujjatlari asosida og'irligi 161 ming 250 kilogramm bo'lgan "Bitum neftyanoy dorojniy vyazkiy marki MBK-G-55" mahsuloti yuborilgan. Birlashgan Arab Amirligining "CARTECH TRADE FZE" tashkiloti tomonidan berilgan invoyis asosida mahsulotning hisob-faktura qiymati har bir tonnasi uchun 420 AQSh dollaridan bojxona yuk deklaratsiyalari "Erkin muomalaga chiqarish" (Im-40) bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan. Biroq Qashqadaryo viloyat bojxona boshqarmasining O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi orqali 2023-yil 25-fevraldagi 4/04-23-0629xfu-sonli xati asosida yuborilgan xalqaro so'rovnomasiga Turkmaniston Respublikasi Bojxona xizmati o'zining 2023-yil 15-maydagi 03/1653-sonli javob xati va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga tilga olingan mahsulotning har bir tonnasi 2 ming 366 Turkman manati (676,9 AQSh dollari) da ekanini ma'lum qilgan. Natijada bojxona organining 2023-yil 7-iyundagi komissiyaviy xulosasiga muvofiq, xususiy korxonaga nisbatan 69 million 509 ming so'mlik qo'shimcha bojxona to'lovi hisoblangan.

Ta'kidlash lozimki, birinchi instansiya sudi da'voni qanoatlantirish to'g'risida barvaqt xulosaga kelgan. Chunki, Bojxona kodeksining 302-moddasiga binoan, olib kiritilgan tovarning bojxona qiymati tovarga doir bitimning, aynan bir xil tovarga doir bitimning va o'xshash tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha, qiymatlarni chegirib tashlash asosida, qiymatlarni qo'shish yo'li bilan va zaxira usulida aniqlanadi. Viloyat bojxona boshqarmasi kodeksning mazkur talabidan kelib chiqib, xususiy korxonaga taqdim etgan shartnoma, yuk hujjatlari, deklaratsiya va invoyslar asosida olib kiritilgan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha dastlab bojxona qiymatini aniqlab, bojxona to'lovini hisoblagan. Javobgar esa ushbu to'lovni o'z vaqtida to'lab bergan. Mazkur holatda olib kiritilgan tovarga doir bitimning qiymati bo'yicha aniqlash usuli asosiy usul sifatida qo'llangan. Vaholanki, Bojxona kodeksining 306-moddasida tovarning bojxona qiymatini aniqlashda deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan foydalanilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lmasa, tovarning bojxona qiymatini aniqlashda 1-usuldan foydalanmaslik belgilangan.

Bundan tashqari, sud da'vogar vakillarining olib kiritilgan tovarlarning har bir tonnasi uchun bojxona qiymati 2 ming 366 Turkman manati (676,9 AQSh dollari)da hisoblanishi lozimligi haqidagi vajlarini asossiz deb hisobladi. Chunki bojxona qiymatini hisoblashga asos bo'lgan shartnoma Turkmaniston hududida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyekti bilan emas, balki Birlashgan Arab Amirligida joylashgan "CARTECH TRADE FZE" kompaniyasi bilan tuzilgan. Mazkur kompaniya tomonidan 2022-yil 18-oktabrda berilgan xatda taraflar o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha tovarning mulkdori "CARTECH TRADE FZE" kompaniyasi hisoblanishi, yetkazib beruvchi esa "Kamil Topar" korxonasi ekani qayd etilgan. Bundan tashqari, xususiy korxonaga tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlar uchun to'lovlar aynan "CARTECH TRADE FZE" kompaniyasiga o'tkazib berilgan. Ana shu asoslarga tayangan holda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori bekor qilinib, da'vo talabi asossiz deb topildi.

Muhiddin BOZOROV,
Husan TURSUNOV,
Qashqadaryo viloyat sudi sudyalari

Bugungi kunda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik tamoyili asosida javobgarlik va jazo belgilash amaliyoti keng qo'llanilmoqda.



AYBDOR QACHON JAVOBGARLIK DAN OZOD QILINADI?

Muayyan davlatning zamonaviy jinoyat-huquqiy siyosati jinoyat qonunchiligini insonparvarlashtirish, ya'ni aybdorning faol tavba qilishi munosabati bilan jinoyat javobgarlikdan ozod qilish instituti hisoblanadi. Jinoyat javobgarlikdan ozod qilishga oid qonun normalari xorijiy davlatlarning jinoyat qonunchiligida ham mustahkamlangan bo'lib, ayrim xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribalari O'zbekiston tajribasiga o'xshash bo'lsa, ba'zi davlatlarning tajribasi tubdan farq qiladi.

1996-yil 17-fevralda qabul qilingan MDHga a'zo davlatlar uchun namunaviy Jinoyat kodeksi jinoyat javobgarlikdan ozod qilishning 4 turini o'z ichiga oladi, ulardan biri aybdorning aybiga chin dildan pushaymon bo'lishi (74-modda) hisoblanadi.

XORIJIY TAJRIBA

Belorussiya jinoyat qonunchiligida aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgani munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish instituti birmuncha vaqt davomida unchalik aktual bo'lmagan. Qilmishdan pushaymonlik tushunchasi Belorussiya Jinoyat kodeksining 88-moddasida javobgarlikdan ozod qilishning bir turi sifatida kiritib o'tilgan edi. Alohida institut sifatida qilmishdan pushaymonlik javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida 63-moddada o'z aksini topgan.

Germaniya Jinoyat kodeksida javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi maxsus bob yoki bo'lim mavjud emas. Aybiga chin dildan pushaymon bo'lish tushunchasi Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismida eng ko'p qo'llanilgan. Shunday qilib, Germaniya JKning 83-moddasiga ko'ra, aybdor o'z aybiga chin dildan pushaymon bo'lgan taqdirda, sud o'z xohishiga ko'ra jazoni yengillashtirishi yoki og'ir jinoyatlar uchun jazodan ozod qilishi mumkin.

Fransiya Jinoyat kodeksida aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lish tushunchasi mavjud emas, ammo maxsus qismning bir qator me'yorlarida ushbu asoslarga ko'ra jazodan ozod qilish nazarda tutilgan. Shunday qilib, Fransiya Jinoyat kodeksining 4221-moddasiga binoan, terroristik harakatni amalga oshirishga uringan har qanday shaxs bu haqida ma'muriy yoki sud organlarini ogohlantirish orqali u qilmishni sodir etishdan qochib, zarurat tug'ilganda boshqa ishtirokchilarni aniqlasa, jazodan ozod qilinadi. Agar ushbu qilmish allaqachon sodir etilgan bo'lsa va jinoyatchi jinoyat harakatlarni to'xtatib, huquqni muhofaza qilish idoralari jinoyat to'g'risida xabar bergan bo'lsa va shu bilan odamlarning o'limiga yoki sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymasa, jazo ikki baravar kamaytirilishi mumkin.

Qator xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlili ularda jinoyat javobgarlikdan ozod qilish institutiga alohida boblar bag'ishlanganini ko'rsatadi. Masalan, Ispaniyaning 1995-yilgi Jinoyat

kodeksida "jazoni ijro etish boshlangunga qadar jabrlanuvchi tomonidan aybdorning kechirilgani tufayli jinoyat javobgarlikni bekor qilish" to'g'risidagi norma mavjud. 1997-yilgi Polsha Jinoyat kodeksi 66-moddasida esa "yetkazilgan zarar qoplansa, jinoyat ta'qib shartli ravishda tugatilishi" mumkinligi ko'zda tutilgan. Janubiy Koreya Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko'ra, javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida faqatgina hukmning ijro etilmagani munosabati bilan ozod qilish, jazodan esa muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kabi turi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan Jinoyat kodeksining "Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish" 75-moddasiga asosan, uncha og'ir bo'lmagan yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Gollandiya jinoyat qonunchiligiga binoan, jinoyat ish yuritishni to'xtatish jazosi olti yildan ortiq bo'lmagan jinoyatlar va jinoyatlarni sodir etgan hamda muayyan shartlar bajarilganda mumkinligi qat'iy belgilangan. Gollandiya Jinoyat kodeksining 74-moddasiga muvofiq, bitim shartlari quyidagilardan iborat: davlatga pul summasini to'lash, olib qo'yilgan yoki musodara qilingan narsalardan yoki ularga bo'lgan huquqlardan voz kechish, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni to'liq yoki qisman qoplash hisoblanadi. Ushbu belgilangan shartlarning biri yoki bir nechta bajarilgan taqdirda prokurorning jinoyat javobgarlikka tortish huquqi tugatiladi.

Yana bir Yevropa davlatlaridan biri Ispaniya jinoyat qonunchiligiga ko'ra javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarga quyidagilar kiradi:

– unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganligidan xabari bo'lmagan taqdirda, tergov organlari oldida jinoyat sodir etishda aybiga iqror bo'lishi;

– hukm chiqarilgunga qadar sud ishining istalgan bosqichida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash yoki uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan aybdorning harakatlari (Ispaniya Jinoyat kodeksining 22-moddasi) tushuniladi. 2002-yil 18-aprelda qabul qilingan Moldova Jinoyat kodeksining 53-moddasi "Jinoyat javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlanib, jinoyat tarkibiy belgilari bo'lgan qilmish sodir etgan shaxslar jinoyat ishi tergovda ko'rib chiqilayotgan paytda prokuror tomonidan yoki sud instansiyasi bosqichida quyidagi hollarda javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin:

- voyaga yetmagani sababli;
- huquqbuzarlik uchun javobgarlikka jalb etilgani;
- jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish;
- aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lish;
- sharoitning o'zgarishi;
- shartli ozod qilish;
- jinoyat javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi hisoblanadi.

Xalqaro jinoyat huquqi qonunchiligiga ko'ra, insonparvarlik tamoyili asosida jinoyat javobgarlik va jazoni liberallashtirish amaliyoti mamlakatimizda ham 2001-yildan buyon amalga oshirilmoqda. Shuningdek, fuqarolarni jinoyatlarning oldini olish, ochish va tergov qilishda faol bo'lishga undaydigan rag'batlantiruvchi qonun normalarining imkoniyatlari o'rganilmoqda hamda takomillashtirish davom etmoqda. Shaxslarning ijobiy faoliyatini rag'batlantirish orqali davlat ularning jazosini qonuniy ravishda yumshatishga va ba'zi hollarda ularni jinoyat javobgarlikdan to'liq ozod qilishga sharoit yaratadi. Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida bunday huquqni qo'llash amaliyoti alohida ahamiyat kasb etadi.

Nurjahn XO'JAYEVA,
Yuristlar malakasini oshirish markazi ish yurituvchi kotibi

Yuqoridagi raqamlar oilaviy zo'ravonlik bo'yicha murojaat qilganlik holatlari yuzasidan natijalardir. Biroq bu haqda murojaat qilmaganlar qancha bo'lishi mumkin? Mamlakatimiz aholisining oiladagi zo'ravonlik holatlaridan xabardorligini o'rganish, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini amalga oshirishdagi muammolarni aniqlash, ularning odil sudlovdan foydalanish darajasini o'rganish maqsadida bir qancha ijtimoiy so'rovlar o'tkazilgan.

So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 93 foizi O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlik muammosi bor, deb hisoblaydi. Oiladagi zo'ravonlikka ayollar (96 foiz), bolalar (69,6 foiz), oiladagi nogironlar (36 foiz), qariyalar (25,6 foiz), erkaklar (8,8 foiz) ko'proq duchor bo'lmoqda.

Oilaviy zo'ravonlikning asosiy sabablariga kelsak, so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 80 foizi ta'lim va madaniyatning pastligi, qarindoshlarning oila hayotiga aralashuvi (61,6 foiz), moddiy muammolar (60,8 foiz), bolalik davridagi oiladagi zo'ravonlik an'anasi (59,2 foiz) deb hisoblaydi. Ishsizlik, ijtimoiy tartibsizlik (56,8 foiz), ichkilikbozlik (53,6 foiz), er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning yomonligi (50 foiz), yomon uy-joy sharoitlari (40,8 foiz), mamlakatdagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat (40 foiz), yuqori daraja jamiyatdagi tajovuzkorlik (36,8 foiz), giyohvandlik (34,4 foiz), zo'ravonlikka genetik moyillik (31,2 foiz) va boshqalarni sabab deb hisoblaydi.

Tadqiqot davomida qiziqarli tendensiya aniqlandi. So'rovlar shuni ko'rsatdiki, fuqarolarning aksariyati (82,9 foizi) maishiy zo'ravonlikdan jabrlangan. Ular o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishi kerak, deb hisoblaydi. Biroq ayni paytda respondentlarning 87,7 foizida ish maishiy zo'ravonlikdan himoya qilish uchun sudgacha yetib bormagani ma'lum bo'ldi. Fuqarolarning 12,3 foizi o'z ishlari sudgacha etib borganini aytdi, biroq ularni ko'rib chiqishda quyidagi holatlar kuzatilgan: sud tomonidan qoralash, nasihat qilish, natijada jabrlanuvchida aybdorlik hissi qolgan, jarima to'lamay yarashtirish, shuningdek, ba'zilar sudyalarning zo'ravonlikdan jabrlanganlar bilan muloqot qilish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarurligi haqidagi fikrni bildirdi.

G'ALATI PARADOKS

Shu o'rinda mazkur mavzuda 10 ming 462 ta sud ishi asosida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga nazar tashlasak. Tadqiqotlar O'zbekistonda xotin-qizlar himoyasi uchun qabul qilingan qonun ularni jazolashga ham xizmat qilayotganini ko'rsatdi. "Bu paradoks dunyoning hech bir huquqiy tizimi amaliyotida uchramagan", deydi tadqiqotchilar.

O'zbekiston aholisining 51 foizi shaharlarda yashasada, ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikning mutlaq ko'p (xususan, ma'muriy ishlarning 82,2 foizi) qismi qishloq hududlarda sodir etilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, eng ko'p oilaviy zo'ravonlik ishlari Toshkent, Navoiy, Jizzax, Buxoro va Farg'ona viloyatlariga, eng kami esa

2023-yilda (amalga kiritilgan kundan boshlab) Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi bilan 203 nafar shaxs sudlanib, ularning 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 144 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlandi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi bilan 8 ming 928 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilib, ularning 5 ming 229 nafariga jarima jazosi, 3 ming 699 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilgan.

OILAVIY ZO'RAVONLIK: TAHLIL VA NATIJA



Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va Xorazm viloyatiga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, qishloq hududlarda oilaviy zo'ravonlik darajasining og'irroqligi, tan jarohati yetkazish holatlarining ko'pligi kishini o'yga toldiradi. Ilmiy tadqiqotlar ham qishloqlarda, aholi, ayniqsa, ayollarning ta'lim darajasi nisbatan past ekani, qarindoshchilik aloqalarining intensivligi va jamoaviy nazorat tufayli oilaviy zo'ravonlik ko'proq bo'layotganini tasdiqlaydi.

Madaniy-ijtimoiy normalar ayollarini doim bo'ysunishga, qaror qabul qilishdan tiyilishga undaydi. Bu normalarni buzgan taqdirda, xotin-qizlar g'iybat orqali, ya'ni gap-so'z qilinish, "mahalla-ko'y nima deydi?" deganga o'xshash vaziyatlar bilan, ostrakizm, ya'ni jamiyatdan chetlatish, aloqa qilmaslik va yaqinlari tomonidan boshqacha shaklda jazolanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar sudlar oilaviy zo'ravonlik holatlari bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklardan jabrlangan ayollarning o'zini ham Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning ayni 59²-moddasi – oilaviy zo'ravonlikda ayblab, javobgarlikka tortayotganini ko'rsatdi. Bunda jazo choralari odatda ruhiy yoki jismoniy zo'ravonlikka uchrangan ayollarning zo'ravonga qarshi javob harakatlari – masalan, kuch ishlatayotgan zo'ravonni haqorat qilish, unga javoban kuch ishlatish orqali jismoniy zarar yetkazish kabi holatlar uchun qo'llanilmoqda.

Masalan, Andijon viloyatidagi ayrim tumanlarning sud qarorlari o'rganilganida, tasodifiy tanlab olingan 10 ta ma'muriy ishning 6 tasida jabrlanuvchi ayolning o'zi ham (jazo tayinlanmasa ham) javobgarlikka tortilgani yoki zo'ravonlikda ayblangani ma'lum bo'ldi. Umuman, tadqiqot yakunlariga ko'ra, bunday amaliyot asosan Andijon viloyati sudlarida, shuningdek, Farg'ona, Toshkent viloyatlari sudlari tomonidan qo'llanilayotgani oydinlashgan. Masalan, bir holatda huquqbuzar o'z xotinini urgan paytda qarshi tomon ham bunga javob

qaytaradi. Ular bir-biriga tan jarohati yetkazishadi. Sud ularning har ikkalasiga ham jarima jazosini tayinlaydi.

Yana bir holatda er alohida yashayotgan xotinining yashash uyiga borib, u bilan janjallashib, unga tan jarohati yetkazadi. Xotini esa bunday zo'ravonlikka qarshi so'kinish bilan javob qaytaradi va erining mashinasi oynasini sindiradi. Sud erni oilaviy zo'ravonlikda, xotinni bo'lsa haqorat va mulkka shikast yetkazishda aybdor deb topib, har ikkalasini javobgarlikdan ozod qiladi.

Uchinchi bir holatda esa er xotinini telefon so'zlashuvda haqorat qiladi, bunga javoban ayol ham uni haqorat qiladi. Sud esa har ikkisini oilaviy zo'ravonlikda aybdor deb topadi. To'rtinchi holatda eri va qaynonasi kelinni urib, unga tan jarohati yetkazgan. Sudda esa kelinning o'zi ham haqorat qilishda aybdor deb topiladi. Shu tariqa ularning o'zaro yarashib olishi uchun qulay vaziyat yaratilgan.

Aslida har ikki tomonga zarar yetgani haqida ariza bo'lgan taqdirda ham, sud zaruriy mudofaa va boshqa tushunchalar nuqtai nazaridan ishni qo'shimcha o'rganishi mumkin edi. Lekin tadqiqotchilar ko'rib chiqqan ma'muriy va jinoiy ishlarda negadir sudyalarga bunga e'tibor qaratishmaydi.

HIMOYA ORDERI O'ZINI OQLAMAYPTI

Tan olib aytish kerakki, himoya orderi bugungi kunda teskari effekt bermoqda. Jabrdiyda xotin-qizlar "Xavotir olmang, himoya orderim bor ku..." deb xotirjam yasholmayapti. Bir hayotiy vaziyatda uch marta berilgan himoya orderi ham 28 yoshli ayolning hayotini saqlab qolmaganiga guvoh bo'ldik.

Boshqa bir vaziyatda ahvoldan ham og'irroq. Ayol 5-qavatdan sakrab, joniga suiqaqd qilgan, uning o'limi hammani larzaga soldi. Holat 27 mart kuni kechki soat 2:00 lar atrofida Bekobod tumanining "Dalvarzin" mahallasida ro'y bergan. Voqea joyiga huquq-tartibot organlari xodimlari yetib kelib, daliliiy ashyo sifatida

marhumaning telefonini olishgan. Ikki nafar voyaga yetmagan qizning onasi bo'lgan ayolning o'limi yuzasidan sud-tibbiy ekspertizasi tayinlangan.

Boshqa bir holatda esa Jizzaxda erkak 25 yoshli xotinini kaltaklab o'ldirgan. Turmush o'rtog'ini bir necha marta urib, unga tan jarohatlari yetkazgan, keyin esa bo'g'ib o'ldirgan. Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi uylardan birida eri qotillikda gumon qilinayotgan ayolning jasadi topilgan.

– Ularning oilasida janjallar tinmasdi, – deydi marhumaning opasi. – 2022-yilda jiddiy nizodan so'ng u ota-onasining uyiga qaytadi. Unga himoya orderi berildi. Uning qanday o'lganini bilmaymiz, lekin uch yoshli o'g'li otam uni tayoq bilan urdi, deb aytdi.

Bu kabi holatlarni deyarli har hafta eshitib, guvohi bo'lib turibmiz. Afsuski, bunday vaziyatlar kun sayin ko'paymoqda. Zo'ravonlikka uchragan ayol himoya orderi oldi. Xo'sh, keyin nima bo'ladi? Hamma gap shunda!

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta'minlash va monitoring olib borish to'g'risidagi nizamning 3-bobida himoya orderining ijrosini ta'minlash tartibi nazarda tutilgan va himoya orderining ishlashini nazorat qilish profilaktika inspektorlariga topshirilgan. Ya'ni, profilaktika inspektorlari tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, shu jumladan, ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'radi. Xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib boradi. Himoya orderi talablarining ijrosi ustidan nazorat qiladi hamda uning talablarini buzgan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi. Shuningdek, mehnat organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari hamda ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining hududiy bo'linmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mahallalardagi xotin-qizlar faollari ham nazarda tutilgan. Ular ham himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda bu haqda profilaktika inspektoriga xabar berishi ko'zda tutilgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, faqat profilaktika inspektorlarigina himoya orderi ishlashini nazorat qila oladi. Oilaviy nizo vaqtida himoya orderiga ega bo'lgan ayol profilaktika inspektoriga xabar bera oladimi-yo'qmi? Bunga hech kim kafolat bera olmaydi.

Jamiyatimizda ayollarni himoya qilishga qaratilgan islohotlar anchagina. Biroq bu borada kamchiliklar ham yo'q emas. Huquqlari poymol bo'layotgan ayol bor jamiyatda nafaqat kelajak avlod, balki jamiyatning o'zi ham zavolga yuz tutadi. Shunday ekan, kelajak avlodning va jamiyatning tarbiyachisi bo'lgan ayollarni e'zozlang!

Feruza PRIMKULOVA,
Yuristlar malakasini oshirish
markazi mas'ul xodimi

8 TALQIN

1913-yilning yozida Andijon shahrida Sulaymon Kelginboyev oilasida uchinchi farzand dunyoga keldi. U bo'lajak huquqshunos Xadicha Sulaymonova edi. Xadicha akasi Yusufjon, opasi Mo'tabar va kichik ukasi Niyoz bilan 1931-yilda to'qqiz yillik maktabni tugatdi. 1931-1935-yillarda Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursida, so'ngra Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq institutining huquq fakultetida o'qidi.

“HUKM BARQARORLIGI – QONUNGA ASOSLANGANLIGIDA”



1935-yilning iyulida xalq sudyasi vazifasida faoliyatini boshlagan. Shu yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi a'zoli-giga saylandi. O'sha, juda og'ir va murakkab davrda yosh huquqshunos jinoyat sudi yuritish ishlarini mas'uliyat bilan boshqardi. Uyilib yotgan jinoyat ishlaridan cho'chimadi, hamma hujjatlarni sinchkovlik bilan o'rganib, hatto dam olish kunlarida ham ishladi. Ba'zi vaqtlarda sudda ko'rilgan jinoyat ishida shaxsning aybi tasdiqlanmasa,

haqiqatni aniqlash qiyin edi. Dastlabki tergov organlari egri dalillar bilan shaxsni aybdor deb topgan hollari ham bo'lgan.

U 1938-yilning sentabrda Moskva yuridik instituti Sovet jinoyat huquqi kafedrasiga aspirant sifatida qabul qilindi. 1941-1945-yillarda Toshkent yuridik institutining jinoyat huquqi kafedrasida dotsent bo'lib ishladi. Xadicha Sulaymonova 1945-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab, yuridik fanlari nomzodi ilmiy dara-

jasiga ega bo'ldi. 1950-yilda esa “O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusi-da doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

U 1951-yilda yuridik institutning jinoyat huquqi kafedrasini mudiri, oradan uch yil o'tib esa, institut direktori etib tayinlandi. Shu yili huquqshunos olimi “O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi” faxriy unvoniga sazovor bo'ldi.

Xadicha Sulaymonova 1955-yilda institut tugatilgach, O'rta Osiyo davlat universiteti yuridik fakultetining dekani hamda jinoyat huquqi kafedrasining mudiri lavozimida ishlay boshladi. 1956-yilning sentabridan esa yanada mas'uliyatli lavozimda ish boshladi, adliya vaziri vazifasini bajarishga kirishdi. Shu yilning oktabrida esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosiga aylandi.

Keyinchalik u Vazirlar kengashi huzurida tashkil etilgan Yuridik komissiya raisi etib tayinlandi. 1959-yilda O'zbekiston SSR Oliy soveti deputatligiga saylandi.

Xadicha Sulaymonova 1964-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi sifatida ish boshladi. U o'ziga bildirilgan ishonchni to'laqonli oqladi. U bu lavozimda katta g'ayrat bilan ishladi. Tajribali huquqshunos jazo tayinlash-

da o'zini oqlamagan qattiq choralarni qo'llashga qarshi edi. U sotsialistik qonunchilik shafqatsiz jazo qo'llash bilangina emas, jazo adolatlilik bilan mustahkamlanishini baralla ayta oldi.

Xadicha Sulaymonova bu haqda gapirganida shunday der edi: “Jazolashdan asosiy maqsad ozodlikdan mahrum qilish emas, eng muhimi, aybdor o'z xatosini qalbi bilan his etsin va anglasin, qilmishlaridan pushaymon bo'lsin, biz unga ishonaylik”. U Oliy sudning jazoni bir-ikki yil kamaytirishini prinsipsizlik, degan ayrim prokuratura xodimlarining fikriga qo'shilmas edi. “Hukm barqarorligi – qonunga asoslanganligida” der edi Xadicha Sulaymonova.

Xadicha Sulaymonova og'ir va uzoq kasallikdan so'ng 1965-yilning 26-noyabrda vafot etdi. Vafot etishidan oldin Xadicha Sulaymonova shunday degan edi: “Menga yana bir yillik umr kerak edi, shu umrni ilmiy faoliyatga bag'ishlagan bo'lar edim...”. Xadicha Sulaymonova qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, juda muhim ishlarni amalga oshirdi. U butun umrini yuridik ilm-fanni rivojlantirishga baxshida etdi.

Sevinch SODIQJONOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi



FARZAND OTA BILAN QOLISHI MUMKINMI?



– Ajrim vaqtida taraflar o'rtasida 2 yoki undan ortiq nafar farzand bo'lsa, ota farzandlaridan bittasini olib qolishi mumkinmi?

Ravshan ANVAROV,
Farg'ona viloyati

– Sud boshqa-boshqa turadigan ota-onalar o'rtasida bo'lgan farzandlarni ularning qaysi biri bilan qaysi bolasi yashash uchun qolishi to'g'risidagi nizolarni hal etishda har ikki tomonning yashash sharoitini, moddiy, ma'naviy, ruhiy holatini va boshqa holatlarni inobatga oladi, albatta. Bunday vaqtda sud Oila kodeksining 71-moddasida belgilanganidek, ota va onaning huquq va majburiyatlarining tengligiga asoslangan holda,

voyaga yetmagan bolalarning manfaatlariga va xohishlariga mos keladigan hal qiluv qarori qabul qilishi lozim.

Bunda sud ota-onadan birining moddiy-maishiy ahvoli ustunligining o'zi bolani unga olib berish uchun asos bo'la oladigan shart hisoblanmasligiga e'tibor qaratadi. Sud bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganini, ota-onadan qaysi biri bolalariga nisbatan ko'proq g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatayotganini, bolalarning yoshini va ota-onadan qaysi biriga ko'ngil qo'yganini hisobga oladi. Shuningdek, sud yakuniy qarorga kelishda ota-onaning axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining ma'lumot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini e'tiborga oladi.

Sud 10 yoshga to'lgan bolaning ota-onasining qaysi biri bilan yashash istagi borligini ham e'tiborga olishi mumkin.

Savolga Buyayda tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Oribjon XUDOYNAZAROV javob berdi

Qonun fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat hamda jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda fuqarolik holati dalolatnomalarini vakolatli organlarda qayd etilishini belgilaydi.

DALOLATNOMA YOZUVLARINING AHAMIYATI

Fuqarolik holatini qayd etish ularning huquq va burchlari paydo bo'lishiga xizmat qiluvchi hujjat (gerbli guvohnoma) berilishi asosidir. Dalolatnoma yozuvlarini qayd etishning ahamiyati shundaki, FHDY bo'limi tomonidan berilgan guvohnoma o'sha hujjatda ko'rsatilgan faktning to'g'riligini tasdiqlovchi shaksiz dalil hisoblanadi. Xususan, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma bolaning tug'ilganini, uning ota-onasi kim ekanini tasdiqlovchi, nikoh guvohnomasi esa nikohdan o'tgan shaxslarning er-xotinligini tasdiqlovchi hamda ular o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarining vujudga kelganini ifodalovchi hujjatlardir. Nikohdan ajralganlik yoki o'lim guvohnomasi ham xuddi shunday. Ya'ni, o'sha guvohnoma nomidan ko'rinib turgan holatni shahodatlaydi.

Tug'ilish va o'limning o'z vaqtida qayd etilishi, tug'ilganlik to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomaning, shuningdek, perinatal o'lim hamda o'lim haqidagi tibbiy ma'lumotnomaning to'g'ri va aniq to'ldirilgani uchun mas'uliyat tuman, shahar tibbiyot birlashmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Manzura SHODMONOVA,
Bandixon tuman FHDY bo'limi mudiri vazifasini bajaruvchi

E'OLON

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yilning 7-may kungi qarori bilan Sherov Radjabbay Bekmurovichga 2023-yil 15-mayda berilgan L-7066281-son advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi tugatildi.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

“Adolat” milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Ortixojayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tiraj: – 4113
Buyurtma – 1698
Topshirish vaqti: – 19:00
Topshirildi: – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5